



Qashqadaryo viloyatining sanoat ishlab chiqarishi (2020-yil yanvar-sentabr)



Dastlabki maʼlumotlar boʻyicha 2020-yilning yanvar-sentabr oylarida viloyat korxonalarini tomonidan 9748,0 mlrd. soʻmlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan boʼlib, 2019-yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi * 97,6 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga toʼgʼri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi (69,1 %) ni tashkil etdi.





Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari boʻyicha sanoat ishlab chiqarish

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmida, sanoat ishlab chiqarish indeksi oʼtgan yilning tegishli davriga nisbatan togʼ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda – 100,1 % ni, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatida – 102,4 % ni, elektr, gaz, bugʼ bilan taʼminlash va havoni konditsiyalashda – 110,0 % ni va suv bilan taʼminlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishda – 42,8 % ni tashkil etdi.

***Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi:** *ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi oʼzgarishini tavsiflovchi nisbiy koʼrsatkichdir.*



Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatining jami sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi



Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2020 - yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1078,3 mlrd. soʻmni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 11,1 % ini tashkil etdi.



Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagʻi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Tog‘-kon sanoatida ishlab chiqarilgan mahsulotlar turi boʻyicha oʼtgan yilning tegishli davriga nisbatan tabiiy gaz hajmi – 2 martani, gaz kondensati – 124,3 % ni, neft qazib olish – 134,8 % ni, qum – 80,9 % ni va chaqiq tosh – 94,5 % ni tashkil etdi.





Sanoat mahsulotlari	2019-yil yanvar-sentabr	2020-yil yanvar-sentabr	Farqi +/-
Qum, ming t.	112,9	112,2	- 0,7
Neft, ming t.	397,4	21,9	- 375,5
Tabiiy gaz, mln. kub.m.	24333,0	1855,2	- 22477,8
Gaz kondensati, ming t.	1043,6	214,8	- 828,8
Chaqiq tosh, ming t.	82,5	156,4	73,9



Ishlab chiqaradigan sanoat



2020-yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 6739,4 mlrd. so‘mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 69,1 % ini tashkil etdi.






Ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo'yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi, % da

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,1 % ni (2019 - yilning yanvar - sentabr oylarida – 0,0 %), o'rta - yuqori texnologiyali - 22,4 % (11,8 %), o'rta - quyi texnologiyali – 3,9 % (2,8 %), va quyi texnologiyalisi - 42,7 % (27,4 %) ni tashkil etdi.





Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdag'i mahsulotlarning o'sish sur'ati



O'z navbatida mazkur tarmog'ida o'tgan yilning mos davriga nisbatan yumshoq bug'doy va spelta uni – 111,6 % ni, plastmassa quvurlari – 99,4 % ni, kaliy xlorid – 101,2 % ni, polietilen – 102,5 % ni, ip-kalava – 93,5 % ni, paxta tolasi – 126,7 % ni tashkil etdi.





Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdag'i mahsulotlarni ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2019-yil yanvar-sentabr	2020-yil yanvar-sentabr	Farqi +/-
Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming t.	102,9	114,9	12,0
Plastmassa quvurlari, ming t.	3,2	3,5	0,3
polietilen, ming t.	99,4	101,9	2,5
kaliy xlorid, ming t.	147,0	148,8	1,8
Ip-kalava, ming t.	17,8	20,2	2,4
Paxta tolasi, ming t.	30,1	33,8	3,7



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1871,7 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining (19,2 % ini tashkil etdi).

2020-yilning yanvar-sentabr oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalash o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 110,0 % ga oshganligi kuzatildi.





Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2019-yil yanvar-sentabr	2020-yil yanvar-sentabr	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt/s	9349,3	7097,1	-2252,2
Issiqlik energiyasi, ming gkal	2536,8	2352,1	-184,7



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 58,7 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,6 % ni) tashkil etdi.



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2019-yil yanvar-sentabr	2020-yil yanvar-sentabr	Farqi +/-
Oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrd.so'm	5,0	0,6	-4,4
Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mln.so'm	18814,1	25413,5	6599,4
Qayta foydalanishga yaroqsiz xavfsiz chiqindilarni yig'ish bo'yicha xizmatlar, mln.so'm	14418,4	15902,3	1483,9

O'tgan yilning mos davriga nisbatan shahar xo'jaligining qayta foydalanishga yaroqsiz xavfsiz chiqindilarni yig`ish bo'yicha xizmatlar 110,3 % ga, hamda suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar 135,1 % ga oshganligi kuzatildi, shuningdek, oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar—12,2 % ga pasayishi kuzatildi.



Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 2890,3 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2019-yilning mos davriga nisbatan 100,0 % ga o'sgan holda, uning jami sanoatdagagi ulushi 29,7 % ni tashkil etdi.



2020-yilning yanvar-sentabr oylarida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari 60,7 %, nooziq-ovqat mahsulotlar 39,3 %, va oziq-ovqat, mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida sharob va aroq mahsulotlari va pivo 2,3 % ni tashkil etdi.

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 2,3 % (2019-yil yanvar-sentabr oylarida 1,3 %), ni tashkil etdi.

Tuman va shaharlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qarshi shahriga to'g'ri kelib, 31,5 % ni, shuningdek, Shahrisabz tumani 9,4 % ni, Yakkabog' tumani 9,0 % ni, Koson tumani 8,9 % ni hamda Shahrisabz shahri 6,2 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyat o'sish sur'ati (100,0 %), darajasidan yuqori ko'rsatkich Yakkabog' (117,9 %), Kasbi (102,2 %), hamda Shahrisabz shahrida (101,3 %) qayd etildi.



**Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati
(2020-yilning yanvar-sentabr oylarida)**

	2020-yil yanvar-sentabr mlrd.so'm	Fizik hajm indeksi, % da
Qashqadaryo viloyati	2890,3	100,0
Qarshi sh.	909,5	97,1
Shahrisabz sh.	180,4	101,3
<i>tumanlar:</i>		
G'uzor	75,9	97,5
Dehqonobod	46,7	97,8
Qamashi	141,1	99,2
Qarshi t.	129,4	99,8
Koson	256,2	97,8
Kitob	171,2	99,0
Mirishkor	69,2	100,2
Muborak	64,8	94,8
Nishon	71,9	97,9
Kasbi	80,3	102,2
Chiroqchi	161,7	99,4
Shahrisabz t.	271,7	100,5
Yakkabog'	260,3	117,9

Viloyatdagi oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush Qarshi shahrida (oziq-ovqat mahsulotlari umumiy hajmining 33,6 %), Koson (9,4 %), va Shahrisabz tumanida (9,2 %) to'g'ri keladi.

Shu bilan birga, oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishda eng katta o'sish Yakkabog' (112,4 %), shahrisabz shahrida (105,7 %), Shahrisabz tumanida (102,2 %), va Qarshi shahrida (101,4 %) qayd etildi.



**Hududlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati
(2020-yilning yanvar-sentabr oylarida)**

	Mlrd.so'm	Jamiga nisbatan ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
Qashqadaryo viloyati	1686,5	100,0	100,7
Qarshi sh.	566,0	33,6	102,0
Shahrisabz sh.	74,5	4,4	105,7
<i>tumanlar:</i>			
G'uzor	43,8	2,6	97,3
Dehqonobod	27,1	1,6	96,2
Qamashi	83,1	4,9	99,0
Qarshi t.	76,6	4,5	100,2
Koson	158,8	9,4	94,1
Kitob	91,1	5,4	98,4
Mirishkor	40,8	2,4	100,1
Muborak	38,3	2,3	95,8
Nishon	42,1	2,5	99,0
Kasbi	54,0	3,2	101,4
Chiroqchi	94,4	5,6	100,0
Shahrisabz t.	155,4	9,2	102,2
Yakkabog'	140,8	8,4	112,4

Tuman va shaharlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qarshi shahriga to‘g‘ri kelib, 30,2 % ni, shuningdek Shahrisabz tumani, 10,2 % ni, Koson tumani 8,6 % ni hamda Yakkabog’ tumani 7,6 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining o‘sish sur’atida yuqori ko‘rsatkich Shahrisabz shahrida (108,3 %), Koson tumani (104,5 %), Kasbi tumani (103,9 %) hamda Mirishkor tumanida(100,4 %) qayd etildi.



**Hududlar bo‘yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab
chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati
(2020-yilning yanvar-sentabr oylarida)**

	Mlrd.so‘m	Jamiga nisbatan ulushi, % da	O‘sish sur’ati, % da
Qashqadaryo viloyati	1136,1	100,0	97,0
Qarshi sh.	343,3	30,2	90,1
Shahrisabz sh.	71,4	6,3	108,3
<i>tumanlar:</i>			
G‘uzor	32,1	2,8	97,9
Dehqonobod	19,6	1,7	100,2
Qamashi	58,0	5,1	99,4
Qarshi t.	52,8	4,6	99,2
Koson	97,8	8,6	104,5
Kitob	80,1	7,1	99,8
Mirishkor	28,4	2,5	100,4
Muborak	26,4	2,3	93,5
Nishon	29,8	2,6	96,5
Kasbi	26,3	2,3	103,9
Chiroqchi	67,3	5,9	98,5
Shahrisabz t.	116,3	10,2	98,5
Yakkabog‘	86,5	7,6	98,8



Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 1477,6 mlrd. soʻmlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi tutgan ulushi 15,2 % ni tashkil etdi.




Qashqadaryo viloyati hududlari kesimida sanoat ishlab chiqarish hajmlari

	2020-yil yanvar-sentabr mlrd.soʻm	Fizik hajm indeksi, % da
Qashqadaryo viloyati	9748,0	97,6
Qarshi sh.	1854,4	98,8
Shahrisabz sh.	195,5	98,5
<i>tumanlar:</i>		
Gʼuzor	2019,8	106,7
Dehqonobod	382,9	94,5
Qamashi	258,5	113,2
Qarshi t.	411,0	74,2
Koson	469,8	100,1
Kitob	230,8	100,8
Mirishkor	199,1	98,7
Muborak	444,2	78,4
Nishon	2055,9	97,5
Kasbi	282,2	112,1
Chiroqchi	200,3	106,8
Shahrisabz t.	417,1	101,6
Yakkabog'	326,5	103,9



Qashqadaryo viloyati hududlari kesimida ishlab chiqarish fizik hajm indeksi, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati % da


Viloyat sanoat ishlab chiqarish fizik hajm indeksining kamayishini, Qarshi tumani (2019-yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 74,2 %), Muborak (78,4 %), Dehqonobod (94,5 %) hamda Nishon (97,5 %), tumanlarida sanoat ishlab chiqarish hajmlari fizik hajm indeksining sezilarli darajada pasayganligi bilan izohlashimiz mumkin.



Iste'mol mahsulotlarini ishlab chiqarish Yakkabog' tumanida (2019- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 117,9 %), Kasbi (102,2 %), Shahrisabz shahri (101,3 %), shuningdek Shahrisabz tumanlarida (100,5 %) sezilarli darajada oshdi.



Qashqadaryo viloyati jami sanoat mahsulotlari hajmida hududlarning ulushi, % da



Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p ulushi Nishon tumani (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmning 21,1 %), G'uzor tumani (20,7 %), Qarshi shahriga (19,0 %), Koson (4,8 %), hamda Muborak tumanlariga (4,6 %) hissasiga to'g'ri kelmoqda. Eng past ko'rsatkich esa Shahrisabz shahri (2,0 %), va Mirishkor tumaniga (2,0 %), hamda Chiroqchi (2,1 %), to'g'ri kelmoqda.

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, Nishon tumanida (13393,6 ming so'm), G'uzor tumanida (9852,8 ming so'm), hamda Qarshi shahrida (6708,8 ming so'm), o'rtacha Viloyat darajasi ko'rsatkichidan (2954,7 ming so'm), ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Viloyat bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 876,1 ming so'm bo'lgani holda, Qarshi shahrida – 3290,6 ming so'mni, Shahrisabz shahrida – 1292,2 ming so'mni, Shahrisabz tumanida – 1223,0 ming so'mni tashkil etdi.




**Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan sanoat mahsulotlari
va iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish
(2020-yil yanvar-sentabr oylarida, ming so‘m)**

	Sanoat mahsulotlari	Iste’mol mahsulotlari
Qashqadaryo viloyati	2954,7	876,1
Qarshi sh.	6708,8	3290,6
Shahrisabz sh.	1400,8	1292,2
<i>tumanlar:</i>		
G’uzor	9852,8	370,2
Dehqonobod	2587,4	315,7
Qamashi	950,1	518,7
Qarshi t.	1650,1	519,4
Koson	1638,7	893,6
Kitob	872,7	647,3
Mirishkor	1658,1	575,8
Muborak	5094,3	742,7
Nishon	13393,6	468,2
Kasbi	1430,2	407,1
Chiroqchi	484,1	391,0
Shahrisabz t.	1877,2	1223,0
Yakkabog‘	1236,6	986,0



Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi (2020-yil yanvar-sentabr oylarida, % da)

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 2992,8 mlrd. so‘mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 30,7 % ni tashkil etdi.




Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Qamashi tumanida (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Kitob tumanida (95,5 %), Chiroqchi tumanida (86,2 %), Shahrisabz shahrida (81,7 %), Yakkabog' tumanida (73,0 %), shu bilan birga, eng kichkina ulush Nishon tumanida (3,7 %), G'uzor tumanida (4,5 %), Dehqonobod tumanida (12,0 %) va Muborak tumanida (14,7 %), kuzatildi.




Viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari (2020-yil 1-oktabr holatiga ko'ra)

Bugungi kunda viloyatda 3831 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 749 tasi (faoliyat yuritayotgan korxonalar umumiy sonining 19,5 %), Qarshi shahriga, 443 tasi (11,6 %), Kitob tumaniga, 342 tasi (8,9 %), Yakkabog' tumaniga, 327 tasi (8,5 %), Shahrisabz shahriga, 318 tasi (8,3 %), Chiroqchi tumaniga, 282 tasi (7,4 %), Qarshi tumaniga, 210 tasi (5,5 %), Shahrisabz tumaniga to'gri kelmoqda.

Yangi tashkil etilgan korxonalar soni, birlikda



Faoliyat yuritayotgan korxonalar soni, birlikda



2020-yilning yanvar-sentabr oyida viloyatda 662 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, shulardan 107 tasi (jami yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari hajmidagi ulushi 16,2 %), Qarshi shahrida, 70 tasi (10,6 %), Chiroqchi tumanida, 68 tasi (10,3 %), Kitob tumanida, 58 tasi (8,7 %), Yakkabog' tumanida tashkil etildi.



Sanoat statistikasi

bo'limi

Tel.: (75) 221-32-36